

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ARAPOV G‘AYRAT NAMOZOVICH

YENGIL SANOAT LEKSIKASINING LINGVOMADANIY ASPEKTI
(INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor philosophy (Phd) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Arapov G‘ayrat Namozovich

**Yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy aspekti (ingliz, o‘zbek va rus
tillari misolida)..... 5**

Arapov Gayrat Namozovich

**Linguocultural aspect of light industry lexicon (on the example of English,
Uzbek and Russian languages)..... 29**

Арапов Гайрат Намозович

**Лингвокультурологический аспект лексики легкой
промышленности (на материале английского, узбекского и русского
языков)..... 54**

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ARAPOV G‘AYRAT NAMOZOVICH

**YENGIL SANOAT LEKSIKASINING LINGVOMADANIY ASPEKTI
(INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/Fill1606 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) Ilmiy Kengash veb-sahifasining (www.tersu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rustamov Ilxom Tursunovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "11" 10 soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@mail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№203 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (376) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "05" 10 kuni tarqatildi.
(2023 yil "05" 10 dagi 42 - raqamli reyestr bayonnomasi)




B. Umurqulov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor


A. Eshmuminov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


P. Bakirov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, diniy va boshqa turli sohalarning maxsus leksikasini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Jamiyat taraqqiyotida umumjahon bo'ylab kuzatilayotgan globallashuv jarayoni va zamonaviy ilmiy-texnikaviy yutuqlar ta'siri natijasida ishlab chiqarish, jumladan yengil sanoat texnologiyalarining rivojlanishi sohaning turli tizimli tillarda nominativ maydoni kengayishiga olib keldi. Yuqoridagi omillar yengil sanoat leksikasini amaliy tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etish, terminlarni tizimlashtirish va tartibga solish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida yengil sanoat diskursi tabiatini har tomonlama zamonaviy lingvistikaning yangi yutuqlari bilan bog'liq ravishda tadqiq etishning ahamiyati tobora oshib borib, ularning pragmatik, kognitiv, semantik, sintaktik, stilistik tadqiqi borasida bir qator ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga ko'ra, yengil sanoat sohasiga oid leksikani bir tomondan ilmiy terminologiya, ikkinchi tomondan umumxalq tili leksikasi bilan mutanosibli, struktur-semantik va grammatik belgilari, uslubiy qo'llanish qonuniyatlari, jamiyatning moddiy-ma'naviy qadriyatlar aksiyatida turli tizimli tillarda milliy-madaniy o'ziga xosligi masalalarini yechish an'anaviy lingvistik tahlil usullari bilan birgalikda zamonaviy yangi metod va yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ham yengil sanoat sohasiga oid termin va leksemalarni har xil aspektlarda chuqur va atroflicha o'rganish milliy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Globallashuv davrida chet tillarni o'rganish tizimini, fan va ta'limni amaliyot bilan uzviy integratsiyasi jarayonlarini takomillashtirishning muhim omili sifatida qaralishi "nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak" ligi, yengil sanoat diskursi lisoniy xususiyatlarining tarixiy negizlarini ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda ingliz tili bilan chog'ishtirma tadqiq qilish zaruratini belgilaydi. Zero, soha leksikasi doirasida kasbiy termin va atamalarini tizimlash, ularni unifikatsiyalash, yengil sanoat sohasiga oid leksik qatlarni konseptual va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish, soha termin va atamalarini qo'llanilishi va rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash zaruratiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-noyabrdagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qaror va farmonlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soha leksikasi, unda termin va atamalarning lisoniy tavsifi J.K.Uizers, P.Magda, S.Derozye, E.J.V.Barber, K.Mettyuz¹, B.N. Golovin, S.V. Grinev, A.V. Superanskaya, N.V. Podolskaya, N.V. Vasilyeva, S.D. Shelov, A.Madvaliyev, A.Hojiyev, H.Yodgorov, Z.N. Aripova, D.M. Yo'ldosheva, S.X. Nurmatova, O.M. Po'latova, M.S. Axatova, Sh.N. Kuchimov, I.J. Yuldashev, G.Y. G'ulomova, O.S. Axmedov, X.D. Paluanova² va b. tilshunos olimlar ishlarida yoritilgan.

Xususan, yengil sanoat sohasi leksikasiga oid ilmiy izlanishlar asosan tekstil terminologiyasi bo'yicha E.J.V. Barber, L.V. Besschetnova, N.A. Gerlyak, G.M. Yermolenko, O.A. Nikolayeva, O.V. Orfinskaya, S.I. Shilikov, D.M. Yo'ldosheva, D. Buronova, N.Muminova, M.Soliyeva³ va b. kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

¹Withers, J. C. "Textile terms and definitions." Aslib Proceedings. Vol. 4. No. 2. MCB UP Ltd, 1952.Polanyi, Magda. "Technical and Trade Dictionary of Textile Terms; German-American/English, American/English-German." (1967). Desrosiers, Sophie. "Textile terminologies and classifications: Some methodological and chronological aspects." E.J.W.Barber Textile Terminologies in the Ancient Near East and the Mediterranean Area from the 3rd to the 1st millennium BC, Ancient Textiles Series 8 (2010): 23-51.Matthews, Kolanjikombil. Encyclopedic Dictionary of Textile Terms: Volume 3. CRC Press, 2018.Barber E.J.W. Prehistoric Textiles. The Development of Cloth in the Neolithic and Bronze Ages with Special Reference to the Aegean. – Princeton: Princeton University Press, 1991. – 471 p

² Barber E.J.W. Prehistoric Textiles. The Development of Cloth in the Neolithic and Bronze Ages with Special Reference to the Aegean. – Princeton: Princeton University Press, 1991. – 471 p.; Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987. – 235 с.; Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 1993. – 309 с.; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: ЛИБРОКОМ, 2012. – 248 с.; Шелов С.Д. Очерк теории терминологии: состав, понятийная организация, практические приложения. – М.: Принт-Про, 2018. – 472 с.; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1986. – 25 с.; Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 366 б.; Ёдгоров Х. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи: Филол. фанл. номз. ...дисс. – Т., 1996. – 163 б.; Арипова З.Н. Ўзбек тили мусикашунослик терминологияси: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Т., 1998. – 26 б.; Йўлдошева Д.М. Енгил sanoat sohasiga oid terminlarнинг инглиз, ўзбек, рус тилларидаги изоҳли луғати. – Тошкент: Янги нашр, 2021. – 208 б.; Нурматова С.Х. Истоки формирования в функционирование астравиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 2000. – 28 б.; Пўлатова О.М. Ўзбек хореография терминологиясининг шаклланиш манбалари ва ривожланиши: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Т., 2001. – 26 б.; Ахатова М.С. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси: Филол. фанл. номз. ...дисс. – Т., 2004. – 23 б.; Кучимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари: Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Т., 2004. – 46 б.; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси; шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Т., 2005. – 27 б.; Фуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фанл. номз. ...дисс. – Т., 2005. – 157 б.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 256 б.; Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари: Филол. фанл. докт. ... дисс. – Т., 2016. – 232 б.

³ Barber E.J.W. O'sha asar; Бессчетнова Л.В. и др. Учет синтагматических связей текстильных терминов при обучении профессиональному русскому языку // Технология текстильной промышленности, 2017. – № 4

Tilshunos olimlar e'tibor markazida tekstil terminologiyasining umumiy muammolari (D. Buronova, O.V. Orfinskaya, M.Soliyeva, S.A'zamov⁴), tekstil tovarshunosligi terminlari (O.A. Nikolayeva, S.I. Shilikov⁵), "Kiyim-kechak" tematik guruhiga xos xususiyatlar (N.A. Gerlyak, G.M. Yermolenko⁶) kabi masalalar o'rin egallaydi.

L.V. Besschetnova tekstil terminlarini o'qitish⁷, Z.X. Auxadiyeva esa tekstil va yengil sanoatda o'lchov birliklari tarjimai⁸ muammolari bo'yicha o'z tadqiqot ishlarini bajarishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universitetining ingliz tili va adabiyoti kafedrasida "Tilning leksik-semantik tizimini chog'ishtirma tipologik o'rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya" mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- jahon tilshunosligida yengil sanoat sohasiga oid leksika tavsiflarini izohlash;

(370). – С. 319-322; Герляк Н.А. Названия одежды в хантыйском языке: генезис и семантика (на материале казымского диалекта) // Вестник угроведения. – 2016. – № 4 (27). – С. 7-14; Ермоленко Г.М. Лингвокультуремы тематической группы «Одежда» (сопоставительный анализ на материале английского и русского языков.: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2009. – 29 с. Николаева О.А. Терминология текстильного материаловедения: Дисс. канд. филол. наук. – Иваново, 2006. – 179 с.; Орфинская О.В. Лента, тесьма, бинт: к вопросу о текстильной терминологии // Египет и сопредельные страны: Электронный журнал.– № 3, 2016. – С. 22-46; Шиликов С.И. Наименования товарной номенклатуры легкой промышленности, подлежащие переводу на английский язык (на примере предприятий Тюменской области) // Язык и культура. – Новосибирск, 2012. – № 2. – С. 135-140; Йўлдошева Д.М. Тўқимачилик соҳасига оид терминлар луҳати (инглиз, ўзбек, рус тилларида). – Тошкент: Янги нашр, 2021. – 384 б.; Бурунова Д. Особенности развития разноязычной текстильной терминологии в современном мире // Электронный ресурс: <http://library.ziyounet.uz/ru/book/download/41143>; Muminova N. Segmental analysis of the market potential of the textile industry of Uzbekistan. // European Journal of Economics and Management Sciences. – Vienna, Austria, 2015. – Issue 2. – P. 14-16; Солиева М.А. Структурно-семантический анализ текстильных терминов в таджикском и английском языках: Дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2014. – 160 с.

⁴ Бурунова Д. Особенности развития разноязычной текстильной терминологии в современном мире // Электронный ресурс: <http://library.ziyounet.uz/ru/book/download/41143>; Орфинская О.В. Лента, тесьма, бинт: к вопросу о текстильной терминологии // Египет и сопредельные страны: Электронный журнал.– № 3, 2016. – С. 22-46; Солиева М.А. Структурно-семантический анализ текстильных терминов в таджикском и английском языках: Дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2014. – 160 с.; Аъзамов М.С. Инглизча-ўзбекча тўқимачилик ва энгил саноат терминларининг структур-семантик таҳлили: Филол. фанл. бўйича фалсафа докт. дисс. автореф. – Андижон, 2022. – 60 б.

⁵ Николаева О.А. Терминология текстильного материаловедения: Дисс. канд. филол. наук. – Иваново, 2006. – 179 с.; Шиликов С.И. Наименования товарной номенклатуры легкой промышленности, подлежащие переводу на английский язык (на примере предприятий Тюменской области) // Язык и культура. – Новосибирск, 2012. – № 2. – С. 135-140;

⁶ Герляк Н.А. Названия одежды в хантыйском языке: генезис и семантика (на материале казымского диалекта) // Вестник угроведения. – 2016. – № 4 (27). – С. 7-14; Ермоленко Г.М. Лингвокультуремы тематической группы «Одежда» (сопоставительный анализ на материале английского и русского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Пятигорск, 2009. – 29 с.

⁷ Бессчетнова Л.В. и др. Учет синтагматических связей текстильных терминов при обучении профессиональному русскому языку // Технология текстильной промышленности, 2017. – № 4 (370). – С. 319-322.

⁸ Аухадиева З.Х. Обучение переводу единиц измерения в области текстильной и легкой промышленности // Вестник. – Алматы, 2011. – № 2. – С. 57-60.

- yengil sanoat leksikasi tadqiqida lingvomadaniy yondashuv asoslarini o'rganish;
- ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy jihatini ochib berishda etimologik tahlilning o'rini belgilash;
- o'rganilayotgan tillarda yengil sanoat leksikasining asosiy leksik-semantik va grammatik xususiyatlarni tasniflash;
- yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi omillarni aniqlash;
- chog'ishtirma aspektda ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasi tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash usuli, qiyosiy-chog'ishtirma, komponent tahlil, lingvokulturologik tahlil, etimologik tahlil hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat sohasi leksikasining muayyan semantik kategorial ma'nolari *tekstil, tikuvchilik, qog'oz poligrafiya, chinnifayans, charm-poyabzal* leksik-semantik mikromaydonlarini hosil qilishi isbotlangan;

lingvomadaniy yondashuv asosida to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nychilik, mo'ynado'zlik, poyabzal va b. yengil sanoat sohalarida xom ashyolarga dastlabki ishlov berish va keng iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq predmet, hodisa va jarayonlar, ularning belgilarini voqelashda ishtirok etuvchi leksik birliklarning milliy-madaniy (lingvomadaniy) bo'yoqdorligi aniqlangan;

chog'ishtirilayotgan tillar lisoniy olam manzaralarida yengil sanoat sohasi bilan bog'liq realiyalar, hodisa va jarayonlarni aks ettirilishida jahondagi globallashuv jarayoni ta'siri natijasida leksik globallashuv hodisasi yuzaga kelganligi dalillangan;

yengil sanoat sohasiga oid leksikaning milliy-madaniy xususiyatlaridagi umumiylik va o'ziga xoslikni belgilovchi qadimiylik, tarmoq sohalarining rivojlanganlik darajasi, madaniyatlarning bir-biriga o'tishi, etnomadaniy realiyalar, siyosiy va b. omillar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yengil sanoat leksikasini lingvomadaniy yondashuv asosida tadqiq qilish asoslari ishlab chiqilgan;

ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining etimologik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini tasniflash mezonlari yoritilgan;

yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi omillar belgilangan;

ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat'iyiligi, qo'llanilgan yondashuv va metodlar hamda ularning nazariy asoslari ingliz, o'zbek va rus tillaridagi badiiy adabiyotlardan olingan misollar tahlilining o'zaro muvofiqligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz, o'zbek va rus tillari misolida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy aspekti o'rganilayotgan leksik birliklarni etimologik, leksik-semantik, grammatik hamda statistik tahliliga asoslangan holda ochib berilganligi, dissertatsiyada keltirilgan nazariy xulosalar qiyosiy-chog'ishtirma yo'nalishda soha termini va atamalarining lingvokulturologik tadqiqida nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, leksikologiya, grammatika, matn tahlili bo'yicha ma'ruza kurslari, seminar mashg'ulotlarini ishlab chiqish hamda olib borishda, dissertatsiya ishlari, monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar yozish, lug'atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining milliy-madaniy jihatdan o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarining tadqiqi nazariy takliflar, amaliy tavsiyalar va xulosalar asosida:

ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat sohasi leksikasining muayyan semantik kategorial ma'nolari *tekstil, tikuvchilik, qog'oz poligrafiya, chinni-fayans, charm-poyabzal* leksik-semantik mikromaydonlarini hosil qilishiga oid xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G003-raqamli "Hozirgi qoraqalpoq tilida so'z yasalishi" nomli hamda FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 28-martdagi 17-01/74-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan o'quv qo'llanma va dasturdagi lingvodidaktik ta'minotni takomillashtirishga xizmat qilgan;

lingvomadaniy yondashuv asosida to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik, poyabzal va b. yengil sanoat sohalarida xom ashyolarga dastlabki ishlov berish va keng iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq predmet, hodisa va jarayonlar, ularning belgilarini voqelashda ishtirok etuvchi leksik birliklarning milliy-madaniy (lingvomadaniy) bo'yoqdorligiga oid xulosalardan Samarqand davlat universitetida bajarilgan Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining 2016-2018-yillarda bajarilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHEIMEP-raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2022-yil 24-maydagi 1298/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan o'quv qo'llanma va dasturdagi lingvodidaktik ta'minotni takomillashtirishga xizmat qilgan; yengil sanoat sohasiga oid leksikaning milliy-madaniy xususiyatlaridagi umumiylik va o'ziga xoslikni belgilovchi qadimiylik, tarmoq sohalarining rivojlanganlik darajasi, madaniyatlarning bir biriga o'tishi, etnomadaniy realiyalar, siyosiy va b. omillariga oid xulosalardan Samarqand davlat chet

tillar institutida bajarilgan № I-204-4-5-raqamli “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan Samarqand davlat chet tillar instituti 2023-yil 04-apreldadagi 883/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha bo‘yicha tayyorlangan elektron resurslar mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 4 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 14 tasi respublika va xorijiy ilmiy konfrensiya va jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yengil sanoat leksikasini lingvomadaniy aspektida tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy tilshunoslikda yengil sanoat leksikasining talqini ko‘rib chiqilib, ularni o‘rganishda lingvomadaniy yondashuv va uni qo‘llash usullari tavsiflanadi.

Yengil sanoat leksikasining tarkibi maxsus soha terminlari va atamalaridan iborat bo‘lib, ular mazkur dissertatsiya ishimizda xilma-xil yengil sanoat xom ashyolariga dastlabki ishlov berish va tayyor keng iste’mol mahsulotlari va buyumlarini ishlab chiqarishga tegishli predmet, hodisa va jarayonlar, ularning belgi va xususiyatlarining maxsus (ilmiy-kasbiy) va umumiste’mol nominatsiyasi sifatida qaraladi.

Yengil sanoat leksikasi 1) qo‘llanilishi tegishli soha doirasi bilan chegaralangan va 2) umumadabiy xarakterga ega so‘z va iboralar tashkil topgan. Qo‘llanilishi yengil sanoat doirasi bilan chegaralangan leksik birliklar bevosita kasbiy, shuningdek ilmiy va, qisman, rasmiy-idoraviy nutqda ishlatilsa, umumadabiy xarakterga ega so‘z va iboralar tilning barcha funksional uslublariga xos nutqda uchratsa bo‘ladi. Yengil sanoat leksikasi tarkibida umumsohaviy va tor

soha terminlari umumadabiy bo'lgan atamalarga qarshi qo'yiladi. Umumadabiy xarakterga ega yengil sanoat leksikasi tarkibi yengil sanoat atamalaridan tashkil topadi.

Yengil sanoat leksikasida predmetlilik, predmetlarning protsessual va noprotsessual belgilari, ma'lum belgining belgisi kabi kategorial ma'nolar verballashuvi lingvomadaniy o'ziga xoslik kasb etadi. Zero har bir millat va lingvomadaniy jamiyat tilida xalqning olam manzarasi o'z aksini topadi. Yengil sanoat ishlab chiqarish mahsulotlarini, bir tomondan, maishiy madaniyatga kiritish mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan borliqni o'zlashtirishning texnik va texnologik darajasi/ usuli sifatida baholash ham haqiqatdan yiroq emas. Madaniy mahsul bo'lmish yengil sanoat mollari va ishlab chiqarish vosita va usullari tilda maxsus yengil sanoat leksikasi yordamida ifodalanar ekan, bu, o'z navbatida, mazkur lug'at qatlami milliy-madaniy bo'yoqdorlikka ega ekanligidan dalolat beradi.

Yengil sanoat leksikasining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish uni lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Lingvomadaniy yondashuvga muvofiq til – olamni birlamchi konseptuallashtirish va odamzod tajribasini ratsionallashtirishning universal shakli, dunyo haqida ongsiz va tartibsiz ravishda olingan bilimlar ifodasi va qo'riqchisi, insoniyat hayotida ijtimoiy ahamiyatga molik voqealar haqida tarixiy xotira⁹.

Yengil sanoat leksikasini lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilishda, xususan, quyidagi asosiy usullarni qo'llash mumkin:

1) dominantlar tahlili usuli. Ushbu metod madaniyatning kalit so'zlari – lingvomadaniy konseptlarni aniqlashga imkon beradi, zero chastotali so'zlar orasida etnos, ijtimoiy guruh va individning lisoniy olam manzarasi dominantalarini ifodalovchi so'zlar mavjud¹⁰. Ko'rinadiki, yengil sanoat leksikasining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishda ushbu tahlil usulini qo'llash soha leksikasi doirasida ko'p qo'llaniladigan termin va atama so'zlarni lingvostatistik usul orqali aniqlashni va ularning ma'lum lingvomadaniy konseptlarni reprezentatsiyadagi rolini o'rganishni taqozo etadi;

2) klaster tahlil usuli. Lingvomadaniyatshunoslikda klaster metodi ostida klasterlarni tashkil etuvchi so'zlarning leksik-semantik (mavzuiy) guruhlarini tavsiflash tushunilib, unda klasterga kiruvchi so'zlarning barchasi leksikografik bayon etiladi va bir vaqtning o'zida har bir so'zning lisoniy olam manzarasi bo'lagini ifodalovchi boshqa so'zlar bilan jamiki aloqalari aniqlanadi. Metod doirasida klasterga turli so'z turkumlariga oid leksemalar kiritilishi mumkinligi nafaqat artefaktlarni aniqlashga, balki ularga bo'lgan milliy madaniyatga xos munosabatlarni ochib berishga ham xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, yengil sanoat leksikasiga ham taaluqli bo'lib, lisoniy olam manzarasida yengil sanoat ishlab chiqarish madaniyati ifodasi etnos madaniyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini yoritishga yordam beradi;

3) maydon metodi. So'ngi paytlarda lingvistik adabiyotlarda leksik-

⁹ Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С. 10-11.

¹⁰ Томберг О.В. Методы и принципы исследований в рамках лингвокультурологического подхода // Социокультурное пространство России и зарубежья: общество, образование, язык. – 2016. – № 5 – С. 145.

semantik maydon tushunchasi bilan bir qatorda lingvomadaniy tushunchasi ishlatilishi kuzatilmoqda. Lingvokulturologik birliklarni o‘rganish metodi sifatida maydon uning har bir tarkibiy qismining mazmun ahamiyati kompleks (umumlashtiruvchi) birlikning butun tarkibiga bog‘liqligiga asoslanadi¹¹. Yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishda maydon metodi tadqiq qilinayotgan tillar tashuvchilarining lingvomadaniyatida tarmoq leksik birliklarini tizimlash va ularning madaniyat ekstropolyatsiyasida ishtirokini tavsiflashga imkon yaratadi;

4) komponent tahlil. Komponent tahlil madaniy konseptlarni voqelantiruvchi lisoniy birliklarning semantik xususiyatlarini ochib berishda qo‘l keladi. Xususan, yengil sanoat sohasiga oid so‘zlarning semalarida ushbu tahlil metodi yordamida madaniyat in’ikosini aniqlash mumkin;

5) diskurs tahlili yoki matning lingvomadaniy tahlili. Matn madaniyatning asl saqlovchisidir¹². Shu bois yengil sanoat sohasiga oid matnlarda termin va atamalarning lingvomadaniy xususiyatlari to‘la namoyon bo‘ladi. Matn materiali bir tomondan milliy realiyalarni bildiruvchi noekvivalent leksikani hamda fon va konnotativ so‘zlarni, tarjima jarayonida yuzaga chiqadigan lakunalarni belgilashga zamin yaratsa, ikkinchi tomondan intertekstual matnlarning yadrosi bo‘lmish lingvomadaniy konseptlar va ularning muallif va retsiyent tizimidagi tuzilmasini tahlil qilishda beqiyos asos bo‘ladi;

6) tezaurus metodi. Ushbu tahlil usuli biror til lug‘atini to‘liq bayon etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Yengil sanoat sohasidagi barcha tushuncha va belgilarni ifodalovchi maxsus terminologiya hamda atamalarni yig‘ish, ularning ma’nolarini izohlash, so‘zlarni boshqa tushunchalarga dahldorligini aniqlash aynan tezaurus metodi yordamida amalga oshiriladi va boshq.

Ko‘rinadiki, yengil sanoat leksikasini lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilishda lingvomadaniyatshunoslikning turli metodlaridan foydalanish mumkin. Bu metodlar tadqiqot obyektining milliy-madaniy xususiyatlarini har xil tomondan tavsiflashga qaratilgan bo‘lsa-da, ular zamirida barchasiga xos bo‘lgan til hodisalarini yengil sanoat madaniyati in’ikosi nuqtai-nazaridan o‘rganish va shu orqali umuman til va madaniyatning o‘zaro aloqalari va ta’sirini ochib berish maqsadi yotadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz, o‘zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining etimologik va leksik-grammatik tavsifi**” deb nomlanadi. Bu bobda yengil sanoat leksikasining etimologik xususiyatlari ochib berilib, soha leksikasining leksik-semantik maydonlari aniqlanadi hamda yasalish usullari tahlil qilinadi.


Ingliz, o‘zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining leksik-grammatik xususiyatlari va bundan kelib chiqqan holda lingvomadaniy belgilari ko‘p jihatdan uning etimologik tavsifi, u sof ingliz, o‘zbek yoki rus tillari so‘zlaridan yoxud o‘zlashma so‘zlardan tashkil topganligi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Biz dissertatsiya ishimizda ingliz, o‘zbek va rus tillari lug‘atlarida qayd etilgan yengil

¹¹ Мягченко Г.Ю. Лингвокультурологическое поле // Аналитика культурологии. – 2011. – № 21. – С. 152.

¹² Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 35.

sanoat sohasiga oid soʻzlarning jami ingliz tilida 1905 ta, oʻzbek tilida 1686 ta, rus tilida 1763 tani tashkil etishi aniqladik.

1-jadvalga qarang.



1-jadval. Ingliz, oʻzbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasi etimologik nuqtai-nazardan tarkibi.

Etimologik nuqtai-nazardan chogʻishtirilayotgan tillarda yengil sanoat leksikasi sof soʻzlar va oʻzlashma soʻzlarga boʻlinadi. Ingliz tilida yengil sanoat leksikasining asosiy qismini sof soʻzlar egallaydi, oʻzlashma soʻzlar nisbatan kamroqdir. Hususan, yengil sanoatga oid sof soʻzlar ingliz tilida 1469 tani tashkil etadiki, bu jami 1905 (100%) tadan iborat soha leksikasining 77% ga toʻgʻri keladi. Oʻzbek tilida yengil sanoatga oid sof soʻzlar 980 tani, yaʼni umumiy 1686 (100%) dan iborat soha leksikasining 58 % ni, rus tilida esa 1311 tani, yaʼni umumiy 1763 (100%) dan iborat soha leksikasining 74 % ni egallaydi. Yengil sanoat sohasiga oid oʻzlashma soʻzlar ingliz tilida 436 (23%), oʻzbek tilida 706 (42%), rus tilida esa 452 (26 %) ni tashkil etadi.

Ingliz tili yengil sanoat leksikasi doirasida oʻzlashma soʻzlarning eng koʻp miqdori – 252 ta – fransuz tilidan kirib kelgan soʻzlarga toʻgʻri keladi. Ular jami 436 (100%) oʻzlashma soʻzlarning 57,8 % ni tashkil etadi. Ingliz tili yengil sanoat leksikasida fransuz tilidan oʻzlashma soʻzlarning koʻpligiga sabab Normanlar istilosining 2 asr davomida inglizlar ustidan hukmronligi va oliy martabali zadogonlarning faqat fransuz tilida muloqot qilishi ortidan soʻzlarning oʻzlashma boʻlib ingliz tili lugʻat boyligi sifatida boyitishga xizmat qildi. Yengil sanoatga oid bunday oʻzlashmalar ingliz tilida *satin, bobbin, canvas, chiffon, cord, crepe, denim* kabi soʻzlarni qamrab oladi. Lotin tilidan kirib kelgan soʻzlar ingliz tili yengil sanoat leksikasi doirasidagi oʻzlashma soʻzlarning 15 % ni, yaʼni 65 tani hosil qiladi. Ular sirasiga *acetate, cellulose, cortex, degumming, extract, latex, silk* kabi soʻzlar kiradi. Umuman olganda, ingliz tili yengil sanoat leksikasi doirasidagi oʻzlashma soʻzlar fransuz tili, lotin tili, hind tili, grek tili, ispan tili, arab tili, golland

tili, fors tili, yapon tili, urdu tili, malayalam tili, portugal tili, bengal tili, nemis tili, italyan tili, norveg tili, xitoy tili, yava tili, norse tili, shotland tili, telegu tili, irland tili, yaxudiy tili, rus tili, shved tili, uels tillaridan kirib kelgan bo‘lib, ularning eng ko‘p miqdori fransuz tilidan o‘zlashmalarga, eng kam miqdori esa xitoy tili, yava tili, norse tili, shotland tili, telegu tillaridan kirib kelgan so‘zlarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek tilining yengil sanoat sohasiga oid leksikasi tarkibidan fors, fransuz, lotin, rus, nemis, ingliz, yunon tili, italyan, arab, golland, grek, ispan, turk, hind, polyak, malay, xitoy, yapon, ukrain, norveg tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar o‘rin egallagan bo‘lib, eng ko‘p miqdor o‘zlashmalar – 205 ta – fors tilidan olingan. Ular hajmi jami 707 (100%) o‘zlashma so‘zlarning 29 % ni hosil qiladi. Ushbu tildan o‘zlashmalar miqdori ko‘pligi o‘zbek va fors xalqlarining ko‘p asrlik iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalari natijasi bilan izohlash mumkin. O‘zbek tili yengil sanoat leksikadan joy egallagan fors tilidan o‘zlashmalarga misol tariqasida *baxmal, dazmol, dastgoh, juvoldiz, kalava, moki, sarafan* каби so‘zlar xizmat qiladi. Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tili yengil sanoat leksikasi doirasida 136 ta, ya‘ni 19.2 % ni tashkil etadi. Masalan: *bandaj, batist, gabardin, galife, garderob, jaket, kapyushon* va h.k. Lotin tilidan kirib kelgan so‘zlar o‘zbek tili yengil sanoat leksikasi doirasida 80 tani, ya‘ni 11.3 % ni hosil qiladi. Ular sirasiga *dekor, kapron, mantiya, fabrikat, forma* kabi so‘zlarni kiritish mumkin. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tili yengil sanoat leksikasidagi fors, fransuz, lotin, rus, nemis, ingliz, yunon tili, italyan, arab, golland, ispan, turk, hind, polyak, malay, xitoy, yapon, ukrain, norveg tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar doirasida eng ko‘p fors tilidan va eng kam ukrain va norveg tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar uchraydi.

Rus tili yengil sanoat leksikasi tarkibidagi o‘zlashma so‘zlar ingliz, lotin, ispan, fransuz, olmon, xitoy, grek, turk, golland, polyak, italyan, fors, malay, chex, yapon, arab, fin-ugor, shved, hind, tatar, even, ozarboyjon, tamil tillaridan kirib kelgan so‘zlardan iborat bo‘lib, eng ko‘p miqdorni – 181 ta – fransuz tilidan o‘zlashmalar tashkil etadi. Ularning salmog‘i jami 452 (100 %) chet tillardan o‘zlashgan so‘zlar miqdoridan 40 % ni egallaydi. Rus tili yengil sanoat sohasiga oid leksikada ushbu tildan o‘zlashmalar ko‘pligiga sabab XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiya moda va kiyim ishlab chiqarish markazi bo‘lgani va aksariyat kiyim-kechak nomlari fransuz tilidan o‘zlashma sifatida rus tili lug‘atiga kirib borgani bilan izohlash mumkin. Masalan: *анорак, ателье, бандаж, батист, бижутерия, блуза, борсетка* va boshq. Nemis tilidan kirib kelgan 91 ta so‘zlar rus tili yengil sanoat leksikasidagi o‘zlashma so‘zlarning 20.1% ga to‘g‘ri keladi. Masalan: *артикул, бабуши, бархат, бинт, брезент, брюки, вата, галстук, гамаша, замша* va boshq. Ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar rus tili yengil sanoat leksikasi doirasidagi o‘zlashma so‘zlarning 11.5 % ni, ya‘ni 52 tani tashkil etishi ma‘lum bo‘ldi. Ular qatoriga *блейзер, боди, вельвет, джемпер, джинсы, дизайнер, коверкот* kabi so‘zlar kiradi. Rus tili yengil sanoat leksikasidagi o‘zlashma so‘zlar ingliz, lotin, ispan, fransuz, olmon, xitoy, grek, turk, golland, polyak, italyan, ozarbayjon, fors, malay, chex, yapon, arab, fin-ugor, shved, hind, tatar, even, tamil tillaridan olingan bo‘lib, ularning eng ko‘p miqdorini fransuz

tilidan, eng kam miqdorini esa fin-ugor, shved, hind, tatar, even, tamil tillaridan kirib kelgan soʻzlar tashkil etadi.

Qarang 2.1-jadval.

Oʻzlashma manbasi	Ingliz tili		Oʻzbek tili			Rus tili		
	Raqamda va foizda							
fransuz tili	252	57,8 %	fors tili	205	29%	fransuz tili	181	40 %
lotin tili	65	15 %	fransuz tili	136	19.2%	nemis tili	91	20.1 %
hind tili	29	6.7 %	lotin tili	80	11.3%	ingliz tili	52	11.5 %
yunon tili	11	2.5 %	rus tili	61	8.6 %	turk tili	16	3.6 %
ispan tili	11	2.5 %	nemis tili	51	7.2%	polyak tili	16	3.6 %
arab tili	9	2 %	yunon tili	51	7.2%	lotin tili	14	3.1 %
golland tili	8	1.8 %	ingliz tili	50	7.1%	turkiy tillar	13	2.9 %
fors tili	7	1.6 %	italyan tili	22	3.1%	golland tili	12	2.7 %
yapon tili	5	1.1 %	arab tili	21	3%	grek tili	11	2.4 %
urdu tili	5	1.1 %	golland tili	6	1%	italyan tili	10	2.2 %
malayalam tili	4	0.9 %	ispan tili	6	1%	ispan tili	7	1.6 %
portugal tili	4	0.9 %	turk tili	3	0.4%	fors tili	7	1.6 %
bengal tili	3	0.7 %	hind tili	3	0.4%	arab tili	3	0.7 %
nemis tili	3	0.7 %	polyak tili	3	0.4%	malay tili	3	0.7 %
italyan tili	3	0.7 %	malay tili	2	0.3%	shved tili	3	0.7 %
norveg tili	3	0.7 %	xitoy tili	2	0.3%	ozarbayjon tili	2	0.4 %
xitoy tili	2	0.5 %	yapon tili	2	0.3%	chex tili	2	0.4 %
yava tili	2	0.5 %	ukrain tili	1	0.1%	xitoy tili	2	0.4 %
norse tili	2	0.5 %	norveg tili	1	0.1%	hind tili	2	0.4 %
shotland tili	2	0.5 %	Jami:	706	100%	yapon tili	1	0.2 %
telegu tili	2	0.5 %				fin-ugor tili	1	0.2 %
irland tili	1	0.2 %				tatar tili	1	0.2 %
yaxudiy tili	1	0.2 %				even tili	1	0.2 %
rus tili	1	0.2 %				tamil tili	1	0.2 %
uels tili	1	0.2 %				Jami:	452	100%
Jami:	436	100%						


2.1-jadval. Ingliz, oʻzbek va rus tillari yengil sanoat sohasidagi oʻzlashma soʻzlarning raqamda va foizda berilishi

Ingliz, oʻzbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining leksik-semantik xususiyatlari ushbu leksika doirasida hosil boʻluvchi leksik-semantik maydonlar va tematik guruhlarda oʻz aksini topadi. Yengil sanoat sohasiga oid leksikani leksik-semantik maydonlar va tematik guruhlarga ajratishda uning muayyan semantik kategorial maʼnolari bevosita tasniflash mezonlari vazifasida xizmat qiladi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda yengil sanoat sohasiga oid leksikani biz I.I. Chumak-Jun nazariyasi¹³ ga tayangan holda quyidagi tamoyillar asosida leksik-semantik maydonlarga ajratdik: 1) semantik jihatdan yengil sanoat sohasiga oid tushuncha hajmini to‘laroq qamrab oluvchi, muayyan guruh doirasida umumlashtiruvchi ma’noni ifodalovchi, sinonimik nuqtai-nazardan dominant bo‘lgan va uslubiy neytral xarakterga ega arxileksema mavjudligi. 2) maydon ichida semantik birliklarning o‘zaro bog‘liqligi; 3) maydon ichida unsurlarning o‘zaro almashinuvchanligi; 4) tilning barcha leksik-semantik maydonlari bilan yaqin munosabatlarga egaligi; leksik-semantik maydonlarni yuqori darajadagi sohaga kiritish mumkinligi. Ahamiyatlisi shuki, leksik-semantik maydonlar yengil sanoat sohasi leksikasiga nisbatan mikromaydon hisoblansa, leksik-semantik guruhlarga nisbatan – o‘zi makromaydon, leksik-semantik guruhlar esa uni tashkil etuvchi mikromaydonlardir.

Ingliz, o‘zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasi doirasida “Tekstil” (“Textile”; “Текстиль”), “Tikuvchilik” (“Sewing”; “Швейное дело”), “Qog‘oz poligrafiya” (“Paper polygraphy”; “Бумажная полиграфия”), “Chinni-fayans” (“Фарфоро-фаянсовое производство”; “Porcelain and faience”), “Charm-poyabzal” (“Leather and footwear”; “Кожевенное-обувное дело”) leksik-semantik maydonlari hosil bo‘lib, ular turli o‘zaro bog‘liq va ularga nisbatan pog‘onaviy munosabatda namoyon bo‘luvchi leksik-semantik guruhlarni o‘zida mujassamlantirishi bilan xarakterlanadi.

Qarang 1-rasm.



1-rasm. Yengil sanoat leksikasida leksik-semantik maydonlar.

Ingliz, o‘zbek va rus tillarida yengil sanoat sohaga tegishli so‘zlarini

¹³ Чумак-Жунь И.И. Лексико-семантическое поле цвета в языке поэзии И.А. Бунина: состав, структура, функционирование: Дисс. ... канд. филол. наук. – К., 1996. – 185 с.

yasash morfologik, morfologik-sintaktik, leksik-semantik va leksik-sintaktik soʻz yasash usullari yordamida amalga oshirilib, ular orasida morfologik usul eng produktiv usul hisoblanadi. Morfologik usul yordamida chogʻishtirilayotgan tillarda soha leksikasi doirasida asosan ot, sifat, feʼl va ravish soʻz turkumlariga mansub soʻzlar affiksatsiya, qoʻshimchalarsiz soʻz yasash, qoʻshma soʻzlar yasash va abbreviatsiya yordamida yasalgan. Morfologik-sintaktik usul yordamida ingliz, oʻzbek va rus tillarida yengil sanoat sohaga tegishli soʻzlarni yasashda substantivatsiya, adyektivatsiya, adverbializatsiya holatlari kuzatildi. Tahlil qilinayotgan tillarda yengil sanoat sohasiga oid leksikaning morfologik-sintaktik usul yordamida yasalishida omonimlar paydo boʻlishi, metaforizatsiya hodisasi yuz berishi, metonimik maʼno koʻchishi alohida oʻrin egallaydi.

Qarang 2.3-jadval.

Morfologik usul		Misollar
Affiksatsiya	suffikslar yordamida	Ingliz: <i>weaver, warper, twister</i> ; Oʻzbek: <i>boʻzchi, boʻyoqchi, toʻquvchi</i> ; Rus: <i>промышленность, кладчик, краситель.</i>
	prefikslar yordamida	Ingliz : <i>nonwoven, intertwine, anticrease</i> ; Oʻzbek: <i>notoʻqima, nogazlama, serburma</i> ; Rus.: <i>задрапировать, замаслить, вплести.</i>
	sirkumfikslar yordamida	Ingliz: <i>transmission, semi-processed, regenerated</i> ; Oʻzbek: <i>serburma, serboʻyoq, serqaviq</i> ; Rus.: <i>безрукавка, подплетина, безусадочный.</i>
Qoʻshimchalarsiz soʻz yasash		Bu affiksatsiya hodisasiga tegishli soʻz yasash usuli asosan rus tiliga xos boʻlib, ingliz va oʻzbek tillarida uchramaydi: <i>вгиб, вырез, выпуск, выстун, вход, выход, вылет, выпад, выбор, вязь, гладь, завод, зажим, запал, залом.</i>
Qoʻshma soʻzlar yasash		Ingliz: <i>whipcord, tablecloth, supercombing</i> ; Oʻzbek: <i>belbogʻ, belburma, ishtonbogʻ, dokafarang</i> ; Rus.: <i>хлопчатобумажный, гребнечесальный, гидрoхимия.</i>
Abbreviatsiya		Ingliz: <i>CAD (Computer Aided Design), WP (weather-proof), L (large), M (medium)</i> ; Oʻzbek: <i>oʻzbekpaxtasanoat oʻzbekipaksanoat, oʻzcharmsanoat</i> ; Rus: <i>ВЗТМ (Волжский завод текстильных материалов), УШФ (Учалинская швейная фабрика), текстильтрест, техноткань, х/б</i>

2.3-jadval. Ingliz, oʻzbek va rus tillarida yengil sanoat sohasiga oid leksikaning morfologik usul yordamida yasalishi.

Umuman olganda, ingliz, o‘zbek va rus tillarida yengil sanoat so‘zlarining leksik-grammatik xususiyatlari, bir tomondan, ushbu tillarning umumiy leksik-grammatik qonuniyatlari bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, har bir tilning grammatik o‘ziga xosligi uning yengil sanoat leksik qatlamidagi o‘ziga xoslikda namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Yengil sanoat leksikasining milliy-madaniy o‘ziga xosligi”** deb nomlangan uchinchi bobida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi omillar aniqlangan holda soha leksikasining lingvomadaniy tahlili amalga oshiriladi.

Yengil sanoat leksikasining milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish til birliklarining lingvomadaniy tadqiq omillari masalasini yuzaga keltiradi. Ingliz tili yengil sanoat leksikasi lingvomadaniy xususiyatlarining tadqiqi ushbu leksikada ingliz xalqining necha asrlar davomida shakllanib rivojlangan va XVIII asrga kelib Angliya davlati iqtisodiyotini agrar-feodal tizimdan sanoat-kapitalistik tizimga o‘tishiga sabab bo‘lgan sanoat ishlab chiqarishining o‘ziga xos jihatlari, jumladan Angliya yengil sanoati rivojlanishiga mustamlaka xalqlar madaniyatining ta’siri, sanoat texnikasi va texnologiyasining jadal takomillashishi, mehnatni mexanizatsiyalashtirish va boshqa shu kabi omillarni inobatga olishni taqozo etadi. Anglashiladiki, ingliz tili yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari bevosita shu kabi omillar bilan belgilanadi. Masalan, ingliz tilidagi yengil sanoatga oid *“macintosh”* so‘zining ma’nosi *“nam o‘tkazmaydigan yengil palto”*¹⁴ degan ma’noni bildiradi. Bu so‘z ostida ingliz xalqi yengil sanoat madaniyatiga xos bo‘lgan milliy kiyim turi yotadi. XIX asr boshlarida Charlz Makintosh kashf etgan ushbu mato keyinchalik uning sharafiga makintosh nomi bilan atala boshlanadi¹⁵.

O‘zbek tili yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni ortishi ma’lum darajada Ovro‘pa uchun ekzotik hisoblangan sharq, xususan O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga bo‘lgan umumiy qiziqish bilan ham belgilanadi. O‘zbek milliy yengil sanoatida boshqa etnos madaniyatida uchramaydigan, ya’ni faqat o‘zbek milliy ishlab chiqarish madaniyatiga xos xom-ashyo, maxsulotlar va ularni ishlab chiqarishning noyob texnologiyalari, tabiiyki, o‘zbek tilida verballashadi va nominatsiya jarayonida ularga xos milliylik til vositalarida, avvalombor leksik birliklarda o‘z aksini topadi. Masalan, o‘zbek tilidagi *adras* so‘zini oladigan bo‘lsak, *“-u oq mato, yo‘l-yo‘l gulli mato”* ya’ni *“o‘rishi ipak, arqog‘i esa ipdan bo‘lgan, atlasga o‘xshash, ammo qalinroq maxalliy gazlama”*ni¹⁶ anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, faqat o‘zbek yengil sanoatida uchraydigan milliy-madaniy mahsulotdir. *Olacha* so‘zi *“ingichka yo‘lli, odatda, paxta ipidan, ba’zan ip va ipakdan to‘qiladigan mato”*ni¹⁷ bildiradi.

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Т. 3. – Б. 530.

¹⁵ Encyclopedia of clothing and fashion. – Vol. 3 – Thomson Gale, 2005. – P. 79.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Т. 1. – Б. 41.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Т. 3. – Б. 107.

Bunda ham bevosita o'zbek yengil sanoat ishlab chiqarishiga xarakterli milliy matoturning ifodasini ko'rishimiz mumkin.

Ingliz va o'zbek tillari yengil sanoat leksikasi o'z lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo'lgani kabi, rus tilida ham yengil sanoatga oid leksik qatlamni tashkil qiluvchi so'z va iboralar tilning tarixiy taraqqiy etishi davomida milliy-madaniy bo'yoqdorlik kasb etganligiga guvoh bo'ldik. Masalan, rus tilidagi *воротник* so'zi yengil sanoatga oid bo'lib, qadimgi ruscha “ворот” (aylantirish, aylanish) so'zidan kelib chiqqan, “*ворота*” yoki “*вход*” (kirish) degan ma'noni anglatadi. Qadimda ruslarning kiyimida tikilgan yoqalar bo'lmagan, shuning uchun odamlar bo'yniga mato bo'lagini o'rab, tomog'iga o'rab yoki va bog'lab qo'yishgan¹⁸. XI-asrda Rusda yangi moda paydo bo'ldi – matodan tikilgan yoqalar bilan bir qatorda mo'ynali yoqalar paydo bo'la boshladi. XIII-asrning oxiriga kelib, Yevropada kiyimlar ko'pincha dekorativ elementlarga ega bo'lgan, ularga yoqalar tikila boshlangan. Uyg'onish davrida yoqalar juda mashhur bo'lib, ko'pincha kiygan kishining ijtimoiy mavqei va boyligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilgan. Rossiyada *воротник* atamasi XVII-asrda tikilgan yoqali kiyimning Yevropa modellari Rossiyada keng tarqalishi munosabati bilan qo'llanila boshlandi. Rossiyada ular *воротнички* deb nomlangan va ko'pincha kashtado'zlik, krujeva yoki marvarid tugmalari bilan bezatilgan¹⁹. Shunday qilib, *воротник* so'zi rus lingvomadaniyatida moda va tikuvchilik texnologiyasining rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan yoqalar ko'pchilik kiyim turlarida, jumladan, ko'ylaklar, bluzkalar, kurtkalar va paltolarda standart elementga aylandi.

Demak, chog'ishtirilayotgan tillarda yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlari muayyan omillar bilan shartlanadi. Bunday omillar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: qadimiylik omili; tarmoq sohalarining rivojlanganlik darajasi omili; madaniyatlarning bir biriga o'tishi omili; etnomadaniy realiyalar ifodasi omili (qadriyatlar omili); siyosiy omil; va boshq.

Qadimiylik omili. Tekstil sanoati ingliz milliy yengil sanoatining eng qadimgi tarmog'laridan biri, shu sababli ham tarmoq leksikasi milliy-madaniylik nuqtai-nazaridan juda ham boy va rang-barangdir. Ingliz tili tekstil sanoati leksikasida qadimiylik omili jun matolar, sun'iy ipak, ip gazlama ishlab chiqarish bilan bog'lik tarixiy va arxaik so'zlar ko'lamida, aynan ularning lingvomadaniy xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *wool* so'zi nemischa “*wulla*” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u o'z navbatida hind-ovro'pa “*wel-*” ildizidan olingan, “*jun*” degan ma'noni anglatadi²⁰. Kiyim-kechak uchun jundan foydalanish yozuv paydo bo'lishidan ancha oldin boshlangan. Manbalar shuni ko'rsatadiki, qo'y juni qadimgi Misr, Osiyo va Yevropada mato yaratish uchun ishlatila boshlandi. Asrlar davomida o'zining katta yaylovlari bilan mashhur bo'lgan Angliyada jun asosiy eksport mahsulotlaridan biri bo'lib kelgan. Ingliz tilida *wool* so'zi XII asrning boshlarida paydo bo'lgan. Bu qo'y junlari uchun qabul qilingan atama bo'ldi. O'rta asrlarda qo'y junidan tikilgan jun gazlamalar juda

¹⁸ <https://ru.wiktionary.org/wiki/воротник>

¹⁹ Орленко Л.В. Терминологический словарь одежды: Ок. 2000 слов. – М.: Легпромбытиздат, 1996. – 344 с.

²⁰ Onions C.T. The Oxford dictionary of English etymology. – London: Oxford University Press, 1994. – 1041 p.

qimmatli bo‘lib, undan kiyim-kechak, ko‘rpa-to‘shak va boshqa buyumlar yasalgan²¹.

O‘zbek milliy yengil sanoatining rivojlanishi ham qadimiy tarixga ega bo‘lib, u birinchi navbatda paxta tolalari, ipak, jun va charm hom ashyolarini qayta ishlash bilan bog‘liqdir. Ishlab chiqarishning uzoq tarixga ega ekanligi tarmoq leksikasida tarixiy va arxaik so‘zlar, ularning milliy-madaniy ma‘nosi sifatida reallashadi. Masalan, *lokki* so‘zi o‘zbek tilida “*peshonabog*” degan ma‘noga ega. Bu so‘zning aynan har qanday kichik turdagi ro‘molni ifodalovchi *peshanobog* so‘ziga nisbatan lingvomadaniy bo‘yoqdorligi shundan iboratki, uning ma‘no doirasida peshanobog‘ning o‘rash tarzi bilan bog‘liq milliy-madaniy ma‘lumot yotadi: bu so‘z “Zomin, Hulkar, Bog‘ishamol, Cholqishloqda ro‘molning buklab buklab, tepasini cho‘chchaytirib peshonaga bog‘lanadigan turini anglatadi”²².

Rus milliy yengil sanoatining rivojlanishi rasman XVIII asr ikkinchi yarmida yirik sanoat fabrikalari paydo bo‘lishi bilan belgilanib, yigiruv mashinalari, to‘qish dastgohlari, kard-mashinalari ixtiro qilinishi texnik taraqqiyotga asos bo‘ldi. O‘tmishdagi yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi o‘sha davrda yuzaga kelgan sohaga oid so‘zlarda voqelanadi. Masalan, *веретено* so‘zi rus tilida “*iplarni yigirish uchun asbob*” degan ma‘noni anglatadi. Bu so‘z, o‘z navbatida, praslavyan **verp-* (aylantirmoq, buramoq) ildizidan kelib chiqqan bo‘lib, rus tilidagi boshqa so‘zlar, masalan, *вертет, вращение, вертолет* va boshqalar ham kelib chiqqan. *Веретено* insoniyatga ma‘lum bo‘lgan ip yigirish uchun mo‘ljallangan birinchi uskunalardan biri edi. Ip yigirish uchun veretenodan foydalanish dunyoning turli madaniyatlari va mamlakatlarida, jumladan, qadimgi Yunoniston va Rimda, o‘rta asrlarda Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan bo‘lib, ayrim xalqlarning an‘anaviy madaniyatida hozirgacha saqlanib qolgan. Rossiyada vereteno to‘qimachilik sanoati uchun muhim ekinlar va asosiy materiallar manbalari bo‘lgan zig‘ir va kanop yigirish uchun ishlatilgan. *Веретенода* iplarni yigirish ko‘nikma va tajribani talab qiladigan mashaqqatli va sekin jarayon edi, shuning uchun veretenoda ip yigirish muhim va hurmat-ehtiroimga ega hunar hisoblangan.

Tarmoq sohalarining rivojlanganlik darajasi omili. Ingliz, o‘zbek va rus tillari yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi omillardan biri ushbu tarmoq sohalarining rivojlanganlik darajasidir. Shu sababli ingliz tili yengil sanoat leksikasida tekstil, tikuvchilik va qog‘oz poligrafik sohalari ishlab chiqarish madaniyatini aks ettiruvchi so‘zlar ko‘plab uchraydi. Masalan, tekstil sanoatiga oid so‘zlar: *felted fabric, nylon, silk, cotton*; Tikuvchilik sohasiga oid so‘zlar: *cable thread, carpet thread, warp, stitch*; Qog‘oz poligrafik sohasiga oid so‘zlar: *folio, gravure, gutter, offset*.

Tabiiyki, aynan bu sohalarga oid so‘zlar o‘zbek tilida yengil sanoat leksikasining asosini tashkil etadi va o‘zida o‘zbek milliy paxta tozalash, to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal, mo‘ynachilik, chinni-fayans hunardmandchiligiga xos jihatlarni mujassamlashtiradi. Masalan, paxta tozalash

²¹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Wool>

²² Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 60.

sohasiga oid soʻzlar: *paxta momigʻi, kondision massa*; toʻqimachilik sohasiga oid soʻzlar: *tanda, tirgovich, oʻrama*; tikuvchilik sohasiga oid soʻzlar: *andoza, oʻlcham, bichiqchi*; koʻn-poyabzal sohasiga oid soʻzlar: *yelim, kauchuk, jilvir, taglik*; moʻynachilik sohasiga oid soʻzlar: *oshlash, ishqor, oqartirish*; gilam toʻqimachilik sohasiga oid soʻzlar: *uzun patli gilam, kalta patli gilam*; chinni-fayans sohasiga oid soʻzlar: *zoldirli tegirmon, yuvish, sopol, sir* va h.k.

Yengil sanoat tarmogʻining soha leksikasi rus tilida boshqa sohalar leksik qatlamiga nisbatan kengligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Masalan, ip-gazlama sanoati sohasiga oid soʻzlar: *мялиса, прялка, веретено*; ipak yetishtirish sohasiga oid soʻzlar: *кокон, сухой кокон, кокон-глухар*; jun sanoati sohasiga oid soʻzlar: *желтяк, руно, обножка*; len ip-kalavasi sohasiga oid soʻzlar: *лен-долгунес, лента лна-долгунса, лноутомление*²³; toʻqimachilik sohasiga oid soʻzlar: *акрил, анорак, ателье*; charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish sohasiga oid soʻzlar: *ботинки, бурки, велутон, стелка*²⁴; tikuvchilik sohasiga oid soʻzlar: *кокетка, липучка, нитки, петля*;

Madaniyatlarning bir biriga oʻtish omili. Bu omil taʼsiri natijasini ingliz, oʻzbek va rus tillari yengil sanoat leksik qatlamida qoʻllaniladigan oʻzlashma soʻzlarda kuzatsa boʻladi.

Masalan, ingliz tilida *abassi* soʻzi oq Misr paxtasini ifodalaydi. Misr paxtasining tolalari uzun va nozikligi bilan ajralib turadi, bunday tolalardan ishlab chiqilgan matolar odatda juda nafis va sifatli choyshablar tayyorlash uchun ishlatiladi. Ingliz tilidagi *portmone* soʻzi oʻzlashma soʻzlarga ishora qiladi va fransuzcha “*porte-monnaie*” soʻzidan dan kelib chiqqan boʻlib, “*hamyon*” degan maʼnoni anglatadi. *Porte-monnaie* dastlab ikki soʻzdan iborat boʻlgan: *porte* “olib yurish, tashish” va *monnaie* “tanga” degan maʼnoni bildiradi. Oʻrta asrlarda odamlar koʻpincha tangalar va zargarlik buyumlarini sumkalarida yoki kiyimlarining choʻntaklarida olib yurishgan. Keyinchalik, bu sumkalar *porte-monnaie* deb atala boshlandi, chunki ular tangalarni saqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan. Vaqt oʻtishi bilan bu soʻz ingliz tilida *portmonee* yoki *portmonaie* sifatida hamyon maʼnosida qoʻllanila boshlandi. Oxir-oqibat, bu soʻz *portmanteau* kabi tovushga oʻzgartirildi va kiyim-kechak tashish uchun maxsus chamadon soʻzi sifatida qoʻshimcha maʼno oldi.

Madaniyatlarining bir biriga oʻtishi omili oʻzbek tili yengil sanoat leksikasida ham sezilarli iz qoldirgan. Oʻzbek xalqining boshqa millatlar bilan madaniyatlararo muloqot va oʻzaro tajriba almashinuvi natijasida yengil sanoat leksik qatlami *angishvona, angob, artikul, bazzoz*, kabi oʻzlashma soʻzlar bilan boyitilgan.

Rus tili yengil sanoat leksikasida madaniyatlarining bir biriga oʻtishi omili taʼsiri *тюбетейка* soʻzida kuzatamiz. Rus tilidagi *тюбетейка* soʻzi, M.Fasmerning “Этимологический словарь русского языка” lugʻatida qayd etilishicha, tatar tilidan *tübätäi*, yaʼni *tüba* – “*tepa qism*” soʻzidan olingan boʻlib, anʼanaviy bosh kiyimni bildiradi²⁵. Bu soʻzning rus tilida paydo boʻlishi tarixi Oʻrta

²³ <https://docs.cntd.ru/document/1200058398>

²⁴ http://www.granucci.ru/info/statja_3

²⁵ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. В 4-х томах. – М.: Прогресс, 1986.

Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo va madaniy almashinuv tarixi bilan bog'liq. Rus savdogarlari va sayoxatchilar bu hududlarga tez-tez sayohat qilib, tukiylar xalqlar madaniyati va an'analari, jumladan do'ppilari bilan yaqindan tanishgan²⁶.

Etnomadaniy realiyalar ifodasi omili (qadriyatlar omili). Ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat tarmog'i leksikasi o'z ichiga bir qator so'zlarni oladiki, bu so'zlar faqatgina ingliz, o'zbek va rus milliy yengil sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ifodalaydi. Bunday mahsulotlarning nomlari ko'plab horijiy tillarga realiyalar sifatida kirib borgan hamda ingliz, o'zbek va rus tillarining o'zida ham lingvomadaniy bo'yodorligi bilan ajralib turadi. Masalan, ingliz tilida *abbots cloth* termini (ingliz tilidan – abbat (katoliklar ruhoniysi) matosi) o'z madaniy semantikasi ega va o'rta asrlardagi ingliz tarixi va madaniyati bilan bog'liq. *Abbots cloth* o'rta asrlarda Angliyada cherkov abbati va boshqa yuqori pog'onadagi ruhoniylar tashrif buyurganda ularga yoyiladigan dasturxon uchun ishlatiladigan mato edi. Mato yuqori sifatli va qimmatbaho matolar va dekorativ naqshlardan tayyorlanganligi sababli hashamat belgisi sifatida ajralib turardi. *Abbots cloth* terminining madaniy ma'no maydonida badavlatlik, yuqori mavqega mansublik yotadi va buning zamirida O'rta asrlardagi Angliya elitasi bilan bog'liq aristokratiya madaniyati yotadi. Hozirgi vaqtda *abbots cloth* termini yuqori sifatli matoni yoki interyer bezatilishidagi hashamatlilikni ifodalab keladi.

O'zbekiston hududida Buyuk ipak yo'li o'tganligi sababli, o'zbek milliy yengil sanoat mahsulotlari, jumladan paxta va ipak tolalari, kiyim-kechak, milliy oyoq kiyimlari, so'zanalar, sopol idishlar butun jahonga keng tarqalgan²⁷. Masalan, *so'zana* so'zi "igna bilan tikilgan" degan ma'noni anglatib, xonani bezatish uchun devorga ilinadigan, odatda to'rtburchak shakldagi matoga kashta tikib tayyorlangan buyumni bildiradi. Ayrim hududlarda yosh kelin-kuyov o'rni ustiga yopinchiq sifatida qo'llaniladi. *Chopon* so'zi – "kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim; to'n"²⁸ degan ma'noni anglatadi. Bu so'z bilan ifodalanadigan ust kiyim chopondir.

Rus milliy yengil sanoatiga xarakterli mahsulotlar qatoriga, dastavval, yigirish va to'qimachilik sohalari mahsulotlari kiradi. Bu sohalar rus milliy yengil sanoati jahonda mashhur bo'lishiga katta hissa qo'shgan bo'lib, sohaviy buyum-mollar nomlarini tilshunoslikda etnomadaniy realiyalar sifatida o'rganish mumkin. Masalan, *uyba* so'zi rus tilida juda boy madaniy semantikaga ega va mo'ynadan yasalgan an'anaviy rus tashqi kiyimlari bilan bog'liq. Bir tomondan, mo'ynali *uybalar* hashamat va boylik ramzi sifatida qabul qilinadi, chunki mo'ynali kiyimlar juda qimmat va hamma uchun hamyonbop emas. Ilgarilari u asosan Rossiyadagi zodagonlar va boy savdogarlar orasida mashhur edi. Boshqa tomondan, mo'ynali shubalar rus qishi va uning qattiq iqlimi bilan bog'liq. *Шуба* Rossiyaning sovuq hududlarida qattiq sovuq va qor yog'ishidan himoyalaniش uchun kerak edi. Rus

²⁶ <https://ru.wiktionary.org/wiki/Тюбетейка>.

²⁷ <https://institutiones.com/agroindustrial/126-2008-06-12-18-02-01.html>.

²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Т. 4. – Б. 504.

madaniyatida *uyba* xalqning an'analari va tarixini ifodalovchi madaniy merosning ajralmas elementi sifatida qabul qilinadi.

Siyosiy omil. Siyosiy omil ingliz, o'zbek va rus tillarida yengil sanoat leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi omillarning biri sifatida xizmat qiladi. Tarixga nazar solsak, Buyuk Britaniya mustamlakachi mamlakat hisoblanadi. Shimoliy Amerika, Afrika, Hindiston, Osiyo, Avstraliya davlatlari Britaniyaga mustamlaka bo'lishgan. Bu, o'z navbatida, yengil sanoat tarmog'i rivojiga katta ta'sir o'tkazgan. Natijada, ingliz tili yengil sanoat leksikasi boyitilgan. Masalan, XVIII asr so'ngidan boshlab ingliz shaharlaridan biri Manchester shahri paxta savdosi bo'yicha jahon savdo markaziga aylanib, *Cottonopolis – paxta dalasi* laqabi bilan yuritilgan. Paxta tolasini qayta ishlash sohasida juda ko'p yangi so'zlar paydo bo'lgan. Vaholanki, paxta Buyuk britaniyada azaliy agrar mahsulot bo'lmagan. Bunga ingliz tilida *cotton* so'zi kelib chiqish nuqtai-nazaridan arabcha so'z ekanligidan ham ishonch hosil qilsa bo'ladi. Ko'rib turganimizdek, davlat siyosati yengil sanoat tarmog'i yanada rivojlanishiga olib kelgan, til boyligi ham mutanosib ravishda o'sgan.

Ingliz, o'zbek va rus lisoniy manzaralarida yengil sanoatdagi realiyalar, ularning sifati, ular bilan yuz beradigan jarayonlar hozirda umumjahon miqyosida kechayotgan jarayonlar bilan hamohang bo'lib, bu jarayonlar orasida birinchi navbatda globallashuvning ta'siri katta ekanligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Tahlilimiz natijalariga ko'ra, chog'ishtirilayotgan har uchala lisoniy olam manzaralarida yengil sanoat sohasidagi turli kashfiyotlar, texnologik yutuklar bir xil ifodalaniladigan o'zlashma so'zlarda namoyon bo'ladi, masalan, ingliz, o'zbek va rus tillarida sun'iy mato tushunchasi *polyester* (ingliz tili), *poliester* (o'zbek tili), *полиэстер* (rus tili); ipak yoki paxta tolasidan to'qilgan yengil, shaffof mato *chiffon* (ingliz tili), *shifon* (o'zbek), *шифон* (rus tili); ipak yoki paxta tolasidan to'qilgan to'quv matosi *satin* (ingliz tili), *satin* (o'zbek tili), *сатун* (rus tili) kabi so'zlar yordamida o'z ifodasini topadi. Ayrim hollarda baynalminal so'zlar ma'nosida ba'zi farqlar kuzatiladi. Masalan, ingliz lisoniy olam manzarasida *flax* so'zi *zig'ir tolasini* ifodalaydi. O'zbek lisoniy olam manzarasida esa *flax* so'zi poyasidan tola, urug'idan moy olinadigan bir yillik o'simlikni bildiradi²⁹. O'zbek tilida bu so'z bilan bir qatorda uning len kabi sinonimi ham qo'llanilib, *zig'ir* o'simligining ishlov berish jarayonidan keyingi olinadigan tola yoki maxsulotga nisbatan ma'noni ifodalab keladi. Rus lisoniy olam manzarasida bu holat *лён-долгунец*, *лён-кудряш*, *лён-межеумок*, *стелющийся лён* kabi so'zlari bilan beriladi va poyasidan tola urug'idan moy olinadigan bir yillik o'simlikni anglatadi.

Bu borada aynan o'zbek tili terminlari baynalminal tus olishi alohida e'tiborga molik. Bunday terminlar milliy boylukning jahon sanoatida keng tarqalishi natijasida ko'plab tillarga o'zlashadi. Masalan, *beqasam*, *xonatlas*, *adras*, *so'zana* kabi terminlar bugungi kunda ingliz va rus tillarida faol ishlatiladi. Bu holatni bir tomondan yengil sanoat mahsulotlarining eksport/import qilinishidagi yutuqlari bilan, ikkinchi tomondan esa bugungi kunda butun jahon

²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Т. 1. – Б. 156

miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayoni bilan izohlash mumkin. Jahondagi globallashuv tendensiyasi olamning milliy lisoniy manzarasida leksik globallashuv, ya'ni o'zlashma baynalminimal so'zlar ko'payishi tendensiyasida aks ettiriladi.

Shunday bo'lsa-da, ingliz, o'zbek va rus olam manzarasida yengil sanoat leksikasi o'xshash bo'lgan o'zlashma baynalminimal so'zlar bilan birga har tilda alohida o'z ifodasiga ega termin va atamalarni ham o'z ichiga qamrab oladi, masalan: *bleaching* – oqartirish – *отбеливание*, *button* – tugma – *пуговица*, *fiber* – tola – *волокно*. Yengil sanoat sohasidagi bunday leksemalarni etimologik, leksik-semantik va qo'llanish nuqtai-nazaridan o'rganadigan bo'lsak, bu so'zlar olamning milliy lisoniy manzarasida yengil sanoat sohasining shakllanishi va rivojini namoyon qilishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, tahlilimiz natijalariga asoslangan holda, chog'ishtirilayotgan ingliz, o'zbek va rus lisoniy olam manzarasida yengil sanoat sohasining aks ettirilishi borasida aynan uning tekstil tarmog'i alohida ajralib turishini qayd etib o'tish mumkin. Ingliz tilida *textile* so'zi "tekstil", "to'qimachilik"ni anglatadi. "Textile" ma'nosini ifodalash uchun "*materials*", "*fabrics*", "*cloths*"³⁰ sinonim so'zlari ham ishlatiladi. Rus tilidagi tekstil so'zi bir tomondan to'qimachilik sanoatini, ikkinchi tomondan esa mato turini bildiradi. O'zbek tilida tekstil sanoati *to'qimachilik* so'zi bilan ham ifodalanib, bu so'z ma'nosida "ushbu faoliyat turi bilan shug'ullanish" semasi ham mavjud. Masalan: *U to'qimachilik bilan shug'ullanadi*. Ingliz tilida "textile" so'zi "fabrika" ma'nosida ham kelib, o'zbek tilida *to'qimachilik mahsulotlari* deb beriladi.

Tekstil tarmog'i zig'irpoya tolasi, kashemir yungi, ipak, paxta, jun, sintetik tolalar va b.dan ip va mato, trikotaj, kigiz mahsulotlari, taval, kanvas, o'rilma (to'qima) matolar, to'r (krujeva), parda-tyul matolarini hamda ulardan yaratiladigan buyumlarni ishlab chiqaradi. Tekstil tarmog'i terminologiyasi o'zida bunday mahsulotlarning o'ziga hosliklarini, jumladan mahsulot materiali va sifatini, uni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnika va texnologiyalarni, tarmoq rivojlanish xususiyatlarini, uning bo'limlarini va sh.k.ning ko'plab jihatlarini mujassamlashtiradi. Ingliz tilida *silk* so'zi o'zbek tilida *unak* so'zi, rus tilida esa *шелк* so'zi bilan ifodalanadi. Bu so'zlarning ma'no semalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ingliz tilida "*silkworm, silk breeding, silken, silky, silked, silkily, silklike, silkness*"; o'zbek tilida "*ipakchi, ipak qurti, ipakchilik, ipakfurush*" va rus tilida esa "*шелковина, шелковица, шелковичный, шелковод, шелководство, шелкотканый*"ni bildiradi. Har uchala xalq madaniyatida ipakchilik yengil sanoatning muhim yo'nalishidan biridir. Aslida m.a. XXVII asrda qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ipakchilik sanoati Buyuk ipak yo'li orqali IV asrda O'zbekiston hududida, Angliya va Rossiyada esa XVII asrda rivojlana boshlagan³¹.

Ingliz tilida ipakdan bo'lgan matolarni *chiffon, taffeta, charmeuse, shantung, satin, organza, shot silk* kabi so'zlar bilan atashadi. Ipak matosining vatani Osiyo bo'lishiga qaramasdan, ipak va ipak mahsulotlariga ishlov berish va undan foydalanish Yevropada XII asrda boshlangan. Ipakdan tayyorlangan nafis matolar

³⁰ <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english-thesaurus/textiles>

³¹ <https://www.bbc.com/news/business-24623315>.

qirollik oilasining sevimli matolaridan biri bo'lgan. Bunga misol qilib ingliz tilida uchraydigan ipak bilan bog'liq idiomalar, maqollar, hikmatli so'z va iboralarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Masalan: *You can't make a silk purse out of a sow's ear. A broken leg is not healed by a silk stocking. With patience the mulberry leaf becomes a silk gown. Silks and satins, scarlet and velvet, put out the kitchen fire*³².

O'zbek olamning lisoniy manzarasida ipak juda muhim rol o'ynaydi, chunki ipakchilik xalq xayotida yetakchi o'rinlardan joy egallagan. Buning lingvistik dalili sifatida ipakchilik bilan bog'liq bo'lgan leksemalarning o'zbek tili paremiyalar fondida *Qiz saqlay bilmagan gung etar, Ipak saqlay bilmagan yung etar. Yaxshiga hazil qilsang, ipakday bo'lar, Yomonga hazil qilsang, eshakday bo'lar. Yeyishing – kepak, Kiyishing – ipak* kabi maqol va matallarda ishlatilishini keltirish mumkin bo'lsa, ekstralingvistik dalillardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasida 1958-yildan hozirgacha "Ipak" nomli ilmiy-texnika jurnali nashri etilishini sanab o'tish joizki, unda "iqtisodiyot va bozor mexanizmi, xo'jalik yuritishning yangi shakllari, tutchilik, ipakchilik, pillani qayta ishlash va ipak mato va buyumlarish, to'qimachilik va yengil sanoat masalalari yoritiladi"³³. O'zbek tili yengil sanoat sohasi leksikasida ipak tolasini ishlab chiqarish bilan bog'liq *ipakchilik, ipakchilik sanoati, ipak yigirish va pishitish, ipakchilik stansiyasi, ipakchi, ipakfurush* kabi termin va atamalar keng qo'llaniladi. Ipakdan bo'lgan matolarning *adras, xon-atlas, shoyi, atlas, baxmal, beqasam, banoras, duxoba, kimxob, kundal, panbarxit, parcha, rupoh, sarja, selon, surra, shifon, shoyi-shohi, harir* kabi turlarining nomlari kuzatilib, ular orasida *adras, xon-atlas, shoyi, atlas, baxmal, beqasam, banoras* ipak mato turlari milliy madaniyatimiz ramzlaridan biri sanaladi.

Rus tilida ipakdan bo'lgan matolarni turiga qarab *атлас, сатин, гренадин, шелковая саржа, репс, крепдешин, парча, фуляр, жаккард, шелковый бархат, шифон, дикий шелк, дупион, вязанный шёлк, бембергский шёлк, искусственный (синтетический) шёлк* kabi s'uzlar ishlatiladi. Alohida ta'kidlash kerakki, rus tilida *шёлк* so'zi etimologik nuqtai-nazardan tub ruscha so'z emasdir. Bu so'z rus tiliga XVI asrlarda Ovro'pa mamlakatlaridan kirib kelgan lotincha *Seres* so'zi bo'lib, tarjimada "Xitoy" ma'nosini bildiradi, chunki ipak yetkazib beruvchi mamlakat Xitoy hisoblangan va hanuzgacha bu davlat dunyo bo'yicha ipak tolalarining 50% ni ishlab chiqaradi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, rus xalqi ipak bilan Ovro'pa orqali tanishgan, shu sababli ham bu tilda ipakning nomlanishi aynan lotincha so'z bilan ifodalanilgan. Va bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi tekstil sanoatida ipak tolalaridan ishlab chiqariladigan matolar turlarini nomlovchi terminlarning aksariyati o'zlashma so'zlardan iborat. Bu esa shundan dalolat beradiki, Rossiyada ipakchilik asl milliy yengil sanoat turi emas, ipak tolalari bu mamlakatda milliy hom-ashyo sifatida yetishtirilmagan. Shu bois ham rus lisoniy olam manzarasida *Купишь ордаш (плохой шемаханский шелк) – даром деньгу отдашь. Удастся лен, так шелк; не удастся, так щелк* kabi maqol va matallar

³² <https://www.special-dictionary.com/proverbs/keywords/silk/5.htm>

³³ https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20I%20harfi.pdf

xarakterlidir. Hozirda mahalliy alohining ipak mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bu tarmoq faol rivojlanayotgan bo'lsa-da, rus lisoniy olam manzarasida ipak madaniyati bilan bog'liq leksika ma'lum darajada o'z ekzotik xarakterini yo'qotmagan. Hanuzgacha rus xalqi milliy ongida ipak qimmatbaho buyum sifatida muhrlanib qolmoqda va ipakka bo'lgan bunday munosabat *В брюхе хоть шелк, да на брюхе шелк. Ковры семи шелков, а рубаха и не прядена. На красавице всякая тряпка – шелк. Отдай мой золот перстень, возьми свой шелков платок! Руса коса до шелкова пояса. Слуги в шелках – бояре в долгах. Хвалят (Хорош) на девке шелк, коли в девке толк* kabi maqollarda o'z aksini topadi.

Ta'kidlash joizki, umuman olganda, yengil sanoatga oid leksika soha rivojlanishi darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, Buyuk Britaniyada yengil sanoat sohasining jun va jun maxsulotlari ishlab chiqarish, paxtani qayta ishlash, kiyim-kechak ishlab chiqarish, charm-poyabzal ishlab chiqarish kabi tarmoqlar, O'zbekistonda paxta yetishtirish va uni qayta ishlash, ipak va ipak maxsulotlari, jun maxsulotlari, ko'nychilik, ip-kalava, to'qimachilik maxsulotlari, yigirish kabi tarmoqlar, Rossiyada esa ko'proq to'qimachilik va tikuvchilik maxsulotlari, charm poyabzal ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlangan bo'lib, shu tarmoqlarga oid leksika ham juda boy va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Qiyos uchun: ingliz tilida *fleece, fur, tweed, yarn, cardigan, weaving, leather*; o'zbek tilida *o'ram, oqlash, atlas, beqasam, kigiz, maxsi, tanxo ip, ishqorlash*; rus tilida kabi *нитки, петля, фурнитура, вискоза, отбеливание, усадка, начесывание, поплин*.

O'zbekistonda to'qimachilik – yengil sanoatning yosh tarmoqlaridan biri, shu bois ham unga oid tushunchalarning leksemalar yordamida ifodalash tizimi xali shakllanib bo'lmagan. Biroq tarmoq rivojlangan sari uni ifodalovchi termin va atamalar ham boyib boradi. Bugungi kunda, masalan, bu tarmoqqa oid *ip-kalava, yigirish, trikotaj, to'quv dastgohi, arqoq* kabi so'zlar keng qo'llanilmoqda. Demak, soha rivojlangani sari yangi termin va atamalar yuzaga keladi. Eski, bugunda ishlatilmaydigan texnologiyalar bilan bog'liq leksika qo'llanish doirasidan chiqib ketadi.

Xulosa qilish mumkinki, ingliz, o'zbek va rus tillarining yengil sanoat leksikasi lingvomadaniyatshunoslik obyekti sifatida milliy-madaniy xususiyatlarga boy bo'lib, uning lingvomadaniy informativligi ingliz, o'zbek va rus xalqlari tomonidan bugungi kunga qadar yaratilgan yengil sanoat sohasi madaniyatidagi o'ziga xoslik voqelanishi bilan belgilanadi.

XULOSA

1. To'qimachilik, tikuvchilik, ko'nychilik, mo'ynado'zlik, poyabzal va yengil sanoatning boshqa sohalarida paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm kabi xom ashyolarga dastlabki ishlov berish va keng iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq predmet, hodisa va

jarayonlar, ularning belgi va xususiyatlarini ifodalovchi soʻz va soʻz birikmalari majmui muayyan til yengil sanoat leksikasini hosil qiladi.

2. Ingliz, oʻzbek va rus tillarida yengil sanoat sohasi leksikasi makromaydoni muayyan semantik kategorial maʼnolari asosida “Текстиль” (“Textile”; “Текстиль”), “Тикувчилик” (“Sewing”, “Швейное дело”), “Qogʻoz poligrafiya” (“Paper polygraphy”; “Бумажная полиграфия”), “Chinni-fayans”, “Charm-poyabzal” (“Leather and footwear”; “Кожевенное-обувное дело”) leksik-semantik mikromaydonlariga, ular esa, oʻz navbatida, bir qancha leksik-semantik guruhlariga ajratiladi.

3. Chogʻishtirilayotgan tillarda yengil sanoat sohasiga tegishli soʻzlarini yasashda morfologik, morfologik-sintaktik, leksik-semantik va leksik-sintaktik soʻz yasash usullari qoʻllanilib, morfologik usul eng produktiv usuldir. Ot, sifat, feʼl va ravish soʻz turkumlariga mansub soha termin va atamaları affiksatsiya, qoʻshimchalarsiz soʻz yasash, qoʻshma soʻzlar yasash va abbreviatsiya yordamida yasaladi.

4. Morfologik-sintaktik usul, yaʼni substantivatsiya, adyektivatsiya, adverbializatsiya usullar yordamida yengil sanoat sohaga tegishli soʻzlarni yasashda omonimlar, metaforizatsiya, metonimik maʼno koʻchishi hodisalari yuzaga kelgan.

5. Yengil sanoat leksikasini lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilishda dominatlar tahlili, klaster tahlil, maydon metodi, komponent tahlil, diskurs tahlili yoki matning lingvomadaniy tahlili, tezaurus metodi kabi usullarni qoʻllash til hodisalarini yengil sanoat madaniyati inʼikosi nuqtai-nazaridan oʻrganish va shu orqali umuman til va madaniyatning oʻzaro aloqalari va taʼsirini ochib berish imkonini beradi.

6. Yengil sanoat madaniyatini, madaniy mahsul boʻlmish yengil sanoat mahsulotlari va ishlab chiqarish vosita va usullarini, ulardagi predmetlilik, predmetlarning protsessual va noprotsessual belgilari, maʼlum belgining belgisi kabi kategorial maʼnolarni voqelashda ishtirok etuvchi lisoniy birliklar milliy-madaniy (lingvomadaniy) boʻyoqdorlik kasb etadi.

7. Ingliz tili yengil sanoat leksikasida Angliyaning agrar-feodal tizimdan sanoat-kapitalistik tizimga oʻtishdagi novatorlik roli, manufaktura shakllanishiga mustamlaka xalqlar madaniyatining taʼsiri, yengil sanoat texnikasi va texnologiyasining rivojlanishi, mehnatni mexanizatsiyalashtirish kabi omillar taʼsirida milliy-madaniy semalar muhrlangan.

8. Oʻzbek tili yengil sanoat leksikasida, bir tomondan, oʻzbek milliy yengil sanoati Oʻrta Osiyo xalqlari hunarmandchiligi madaniyatiga asoslanganligi, ikkinchi tomondan esa aynan oʻzbek milliy ishlab chiqarish madaniyatiga xos xom-ashyo va maxsulotlarni ishlab chiqarish noyob texnologiyalari bilan belgilanadigan milliy-madaniy xususiyatlar kuzatiladi.

9. Rus tili yengil sanoat leksikasi rus xalqi madaniyatida muhim oʻrin egallagan movut, polotno, toʻr matolar toʻqish hunarmandchiligida xom-ashyo maxsulotlari va ularga ishlov berish uchun kerakli narsa va asbob-uskunalarni deyarli yarmi import qilinishi sababli oʻzlashma soʻzlarga boyligi bilan ajralib turadi.

10. Chog'ishtirilayotgan tillarda yengil sanoat sohasiga oid leksikaning milliy-madaniy xususiyatlaridagi umumiylik har uchala tilda soha leksikasining lingvomadaniy o'ziga xosligi qadimiylik omili, tarmoq soharining rivojlanganlik darajasi omili, madaniyatlarning bir biriga o'tishi omili, etnomadaniy realiyalar ifodasi (qadriyatlar omili), siyosiy omil va boshqalar ta'siri ostida shakllanganligida namoyon bo'ladi.

11. Ingliz, o'zbek va rus lisoniy olam manzaralarida yengil sanoat sohasi bilan bog'liq realiyalar, hodisa va jarayonlarni aks ettirilishida bugungi kunga xos bo'lgan umumiy tendensiyalar, dastavval globallashuv tendensiyasi ta'siri kuzatiladi. Soha leksikasida globallashuv tendensiyasi an'anaviy termin va atamalar bilan bir qatorda leksik globallashuv hosilasi bo'lmish o'zlashma baynalminal so'zlar keng ishlatilishida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, paydo bo'lishida o'zga ma'noga ega, hozirda esa yangi ma'no kasb etituvchi yengil sanoatga oid leksemalar ham sohadagi yangi kashfiyotlar, yangi texnologik yutuklarning lisoniy olam manzarasidagi aksi ekanligidan dalolat beradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
PhD.03/31.03 2021.Fil.78.04 AT TERMEZ STATE UNIVERSITY**

TERMEZ STATE UNIVERSITY

ARAPOV GAYRAT NAMOZOVICH

**LINGUOCULTURAL ASPECT OF LIGHT INDUSTRY LEXICON
(ON THE EXAMPLE OF THE ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN
LANGUAGES)**

**10.00.06 – Comparative Literature, Contrastive Linguistics and Translation
studies**

**DISSERTATION ABSTRACT
for the doctor of philosophy degree (PhD) in philological sciences**

Termez – 2023

The theme of the dissertation for the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under № B2021.1.PhD/Fil1606.

The dissertation has been prepared at Termez State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian, (resume)), is placed on the website of Scientific Council (www.tersu.uz) and on the website of «ZiyoNet» Information and Educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor: Teshabayeva Dilfuza Muminovna
Doctor of Philological Sciences, professor

Official opponents: Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich
Doctor of Philological Sciences, associate professor


Rustamov Ilxom Tursunovich
Doctor of Philosophy, associate professor


Leading organization: Karshi State University

The dissertation defense will be held on 10 "11", 2023 at 12:00 at the meeting of the Scientific Council PhD.03/31.03 2021.Fil.78.04 at Termez state university. Address: Termez city, Barkamol avlod street, 43. Phone: (876) 221-74-55; fax: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

The dissertation can be found in the Information-Resource Center of Termez State University. (registered with the number #103). Address: Termez city, Barkamol avlod street, 43. Phone: (876) 221-74-55.

Dissertation abstract was distributed on "05" 10 2023.
(Registry record No. 42 dated "05" 10 2023).




B. Umurkulov,
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences, professor


A. Eshmuminov,
Scientific secretary of the Scientific
Council awarding scientific degrees,
Doctor of Philological Sciences, associate
professor


P. Bakirov,
Deputy Chairman of the Scientific
Seminar at the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences, professor

INTRODUCTION (annotation of the doctor of philosophy (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. Interest in comparative-typological study of the special lexicon of political, economic, social, religious, etc. fields is growing in world linguistics. As a result of the worldwide acceleration process in the development of society and the influence of modern scientific and technical achievements, the development of production, including light industrial technologies, has led to the expansion of the nominative space of the field in different systematic languages. The above factors create the need for in-depth research of the light industry lexicon from the point of view of applied linguistics, systematization, and regulation of terms.

In modern linguistics, the importance of researching the nature of the light industry discourse is increasing in connection with the new achievements of applied linguistics. A number of scientific researches are being carried out in pragmatic, cognitive, semantic, syntactic, and stylistic aspects. Accordingly, the lexicon related to the light industry field, on the one hand, is scientific terminology, and on the other hand, its proportionality with the lexicon of the national language, structural-semantic and grammatical signs, rules of methodological application, as a reflection of the material and spiritual values of the society, is used in various systematic languages. Solving issues of cultural identity requires new methods and approaches in line with traditional linguistic analysis methods.

In our country, in-depth and comprehensive study of terms and lexemes related to the light industry in various aspects has become one of the actual issues of national linguistics. In the era of globalization, it is considered an important factor for improving the system of learning foreign languages, the processes of organic integration of science and education with practice, "in order to increase the knowledge and level of not only young people but also members of our society, first of all, knowledge and high spirituality "necessity" determines the necessity of cross-researching the historical foundations of the linguistic features of the light industry discourse with the English language, relying on advanced foreign experiences. After all, it has become urgent to systematize professional terms and terms within the field lexicon, sdartadize, analyze the lexical layer related to the light industry from a conceptual and linguistic-cultural viewpoints, and identify the main trends in developing specific field terms.

The research work contributes to the implementation of the Presidential Decree No. PF-6097 as of October 29, 2020 "Science until 2030 on approving the concept of development", No. PF-6108 dated November 6, 2020 "On measures to develop the fields of education and science in the new development period of Uzbekistan", 2021 PQ No. 5117 of May 19 "On measures to bring the activities of popularization of learning foreign languages to a qualitatively new level in the Republic of Uzbekistan", No. PF-60 of November 28, 2022 "For 2022-2026. This dissertation will serve to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the intended

decisions and decrees on the development strategy of New Uzbekistan, as well as in other regulatory legal documents related to this activity.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic: I. The research was carried out under the priority directions of science and developing technology of the Republic “The Formation of the Innovative System of Ideas in Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual and Educational Development of the Democratic State and their Ways of Implementation in the Information Society”.

Problem development status. The works of J.C. Withers, P. Magda, S. Desrosiers, E.J.W. Barber, K. Matthews³⁴, B.N. Golovin, S.V. Grinev, A.V. Superanskaya, N.V. Podolskaya, N.V. Vasilyeva, S.D. Shelov, A. Madvaliyev, A. Hojiyev, H. Yodgorov, Z.N. Aripova, D.M. Yoldosheva, S.Kh. Nurmatova, O.M. Polatova, M.S. Akhatova, Sh.N. Kuchimov, I.J. Yuldashev, G.Y. Gulomova, O.S. Akhmedov, Kh.D. Paluanova deal with the problems of the lexicon of the field, in which the linguistic description of the terms nature are studied³⁵. In particular, scientific research on light industry of lexicon based on textile terminology is reflected in the works of E.J.W. Barber, L.W. Besschetnova, N.A. Gerlyak, G.M. Yermolenko, O.A. Nikolayeva, O.V. Orfinskaya, S.I. Shilikov, D.M. Yoldosheva, D. Buronova, N. Muminova, M. Soliyeva³⁶ and other linguists.

³⁴ Withers, J. C. "Textile terms and definitions." *Aslib Proceedings*. Vol. 4. No. 2. MCB UP Ltd, 1952. Polanyi, Magda. "Technical and Trade Dictionary of Textile Terms; German-American/English, American/English-German." (1967). Desrosiers, Sophie. "Textile terminologies and classifications: Some methodological and chronological aspects." *Textile Terminologies in the Ancient Near East and the Mediterranean Area from the 3rd to the 1st millennium BC*, Ancient Textiles Series 8 (2010): 23-51. Matthews, Kolanjikombil. *Encyclopedic Dictionary of Textile Terms: Volume 3*. CRC Press, 2018. Barber E.J.W. *Prehistoric Textiles. The Development of Cloth in the Neolithic and Bronze Ages with Special Reference to the Aegean*. – Princeton: Princeton University Press, 1991. – 471 p

